



6-dars. Minglar




1. Har bir to'plamda **100 tadan g'isht** bor. Bu to'plamlarda jami nechta g'isht borligini hisoblang.




100 ta




100 ta




100 ta




100 ta




100 ta




100 ta



100 ta



100 ta




100 ta


10 ta yuz yangi sanoq birligi – **mingni** hosil qiladi.

O'qilishi: **bir ming.**

Yozilishi: **1000**




1 yuz





1 ming



2. Sonlarni ularning **grafik modeli** bo'yicha ayting.



1000



3. Namuna bo'yicha yozing.

Namuna: 22 ming = 22.000

65 ming

43 ming

17 ming

128 ming



4. Namuna bo'yicha hisoblang.

Namuna:

$$5000 + 3000 = 8000$$

$$5\text{ming} + 3\text{ming} = 8\text{ming}$$

a) $1000 + 7000$

b) $9000 - 4000$

d) $6000 + 3000$

e) $7000 - 5000$



5. Qurilish uchun 17000 ta to'q sariq va 15000 ta kulrang g'isht keltirildi. Birinchi kun 26000 ta g'isht ishlatildi. Keyingi kunga nechta g'isht qoldi?



6. Uyni ta'mirlash uchun uchta xonaga plintus sotib olish kerak. Xonalarning o'lchamlari jadvalda ko'rsatilgan. Ushbu xonalar uchun jami necha metr plintus sotib olish kerak?

xona turi	xonaning bo'yi	xonaning eni
mehmonxona	8m	6m
yotoqxona	6m	5m
bolalar xonasi	6m	4m



7. Kattaliklar bilan bog'liq amallarni bajaring.

$$165 \text{ cm} + 219 \text{ cm} - 349 \text{ cm}$$


$$543 \text{ cm} - 384 \text{ cm} + 556 \text{ cm}$$

$$502 \text{ dm} - 217 \text{ dm} - 198 \text{ dm}$$


$$187 \text{ dm} + 109 \text{ dm} + 265 \text{ dm}$$



8. Har bir muntazam ko'pburchak tomonining uzunligi a cm ga teng. Qaysi ko'pburchakning perimetri noto'g'ri hisoblangan?



$$P = a \cdot 5$$




$$P = a \cdot 6$$



$$P = a \cdot 4$$



$$P = a \cdot 8$$



$$P = a \cdot 3$$



9. Har bir qatordagi **qonuniyatni** aniqlang va navbatdagi ikkita sonni toping.

8 6 14 20 34 ? ?

5 7 12 19 31 ? ?



10. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

$$5000 + 8000$$

$$26000 + 48000$$

$$18000 - 9000$$

$$81000 - 34000$$

11. Tumanda 76 ta uy qurildi. Shundan 32 tasi to'qqiz qavatli, 25 tasi yetti qavatli, qolganlari esa besh qavatli uylar. Ushbu tumanda nechta yangi besh qavatli uy qurilgan?

